

TRANSPORT TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Sapayev Axmed Durdibaevich

Urganch Ranch texnologiya universiteti, PhD

Annotatsiya

Maqolada transport tizimining mohiyatini aniqlash hamda uning iqtisodiy jarayonlardagi roli va taʼsirini baholash uchun unga boʻlgan yondashuvlar, shuningdek, transport va faoliyat tizimlari oʻrtasidagi munosabatlar, aqlli axborot tizimining transport harakatini boshqarish jarayonidagi asosiy muammolari tadqiq qilingan. Transport tizimining samarali faoliyatini tashkil etish va mavjud muammolarni hal etishda aqlli texnologiyalardan foydalanish, mavjud transport infratuzilmasini takomillashtirish hamda ularni aholining mavjud ehtiyojlariga moslashtirish asosida aqlli transport tizimini yaratish boʻyicha ilmiy taklif va xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit soʻzlar: transport tizimi, transport infratuzilmasi, transport xizmati, aqlli texnologiya, aqlli transport tizimi.

Аннотация

В статье исследованы подходы к определению сущности транспортной системы, а также оценка её роли и влияния на экономические процессы, отношения между транспортом и функциональными системами, основные проблемы управления транспортным движением с помощью интеллектуальных информационных систем. Рассмотрено использование умных технологий для организации эффективной работы транспортной системы, решение существующих проблем, улучшение существующей транспортной инфраструктуры и её адаптация к актуальным потребностям людей. На основе этого разработаны научные предложения и выводы по созданию умной транспортной системы.

Ключевые слова: транспортная система, транспортная инфраструктура, транспортный сервис, умные технологии, умная транспортная система.

Abstract

The article explores the approaches to defining the essence of the transport system, as well as assessing its role and impact on economic processes, the relationships between transport and operational systems, and the main issues in managing transport movement through intelligent information systems. The use of smart technologies in organizing the effective operation of the transport system and solving existing problems, improving the existing transport infrastructure, and adapting it to the current needs of people has led to the development of scientific proposals and conclusions on creating an intelligent transport system.

Keywords: transport system, transport infrastructure, transport service, smart technology, smart transport system.

KIRISH

Transport tizimi iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi muhim omillardan biri bo‘lib, u iqtisodiy taraqqiyotning asosiy manbalaridan biri sifatida qaraladi. Bugungi kunda mamlakatlar va mintaqalarning iqtisodiy taraqqiyoti, ya’ni iqtisodiy yutuqlarning mamlakatlar o‘rtasidagi taqsimoti bevosita transport tizimining rivojlanish darajasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib qolmoqda¹. Bu esa, o‘z navbatida, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlashda transport tizimining ahamiyatini va uning inson faoliyatining turli shakllari bilan har tomonlama bog‘liq ekanligini asoslaydi. Chunki ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosini inson kapitali ta’minlaydi.

Keyingi yillarda integrallashgan va yuqori sur’atlarda o‘zgarayotgan ishlab chiqarish tizimlari hamda iste’mol muammolari transport xizmatlariga bo‘lgan talab va shartlarning oshishiga olib kelmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, transport tizimini shakllantirish bilan bog‘liq tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish va kuchaytirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ya’ni, transport tizimi hududning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi, mavjud muhit hamda tizimning xususiyatlarini hisobga olgan holda shakllantirilib, unga moslashtirilishi talab etiladi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, mintaqalar va mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy yutuqlarning taqsimoti bevosita transport tizimining holati bilan bog‘liq bo‘lib, bu holat ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlarning muhim va istiqbolli tadqiqot mavzularidan biri sifatida qolishini ta’minlaydi. Nazariy va empirik tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, transport infratuzilmasini takomillashtirishga qilingan har qanday investitsiya va tizimdan foydalanishdagi o‘zgarishlar mintaqaviy rivojlanish va iqtisodiy faoliyatni jonlantirishga xizmat qiladi².

ADABIYOTLAR SHARHI

Umumiy iqtisodiy o‘shish nazariyasi asoschilarining fikriga ko‘ra, transport infratuzilmasiga davlat investitsiyalarining roli oshganida, shuningdek, xususiy investitsiyalarning ahamiyatiga alohida e’tibor qaratilganida, uzoq muddatli o‘shish sur’atlarini ta’minlash imkoniyati yaratiladi³. Ya’ni, transport tizimida strategik ahamiyatga ega bo‘lgan yo‘nalishlar, xususan temir yo‘l, havo transporti kabi sohalar nafaqat xususiy investitsiyalar, balki davlat investitsiyalarining rolini ham saqlab qolishni talab qiladi.

Ba’zi tadqiqotlarda transport infratuzilmasining o‘shishiga ta’sir qiluvchi turli omillar va shart-sharoitlar keltirib o‘tiladi⁴. Bular: Ishlab chiqarish zaxiralari asosida to‘g‘ridan-to‘g‘ri samaradorlikka ta’siri, Xususiy investitsiyalar orqali to‘ldiruvchi ta’siri, Moliya tizimi yordamida xususiy xarajatlarni siqib chiqarish ta’siri.

¹ Koźlak, Aleksandra. (2017). The role of the transport system in stimulating economic and social development. *Zeszyty Naukowe Uniwersytetu Gdańskiego. Ekonomika Transportu i Logistyka*. 72. 19-33. 10.5604/01.3001.0010.6873.

² Ўша жойда.

³ Aghion, P. and Howitt, P. (1998), *Endogenous Growth Theory*, The MIT Press, Cambridge.; Barro, R.J. and Sala-i-Martin, X. (1995), *Economic growth*, The MIT Press, Cambridge.

⁴ Agenor, P.-R. and Moreno-Dodson, B. (2006), *Public infrastructure and growth: new channels and policy implications*, World Bank Policy Research Working Paper, 4064.; Agénor, P.-R. (2004), *The economics of adjustment and growth*, 2nd edition, Harvard University Press, Boston.

Keyingi tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, transport xizmatlarining taraqqiyoti oraliq mahsulotlarning yangi turlarini shakllantirish uchun sarflanadigan xarajatlarni kamaytirish orqali innovatsion jarayonlar va texnologik yangilanishlarni osonlashtirishga xizmat qiladi¹. Ushbu keltirilgan omillarni hisobga olgan holda transport infratuzilmasining iqtisodiy o‘rishga ta‘sirini tadqiq qilish jarayonida ishlab chiqarishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘siri hamda umumiy omillar unumdorligiga bilvosita ta‘siri sifatida baholash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mazkur jarayonlardagi ta‘sirlarni miqdoriy baholash uchun bir qator usullardan, jumladan: Iqtisodiy-matematik modellashtirish, Statistik tahlil, Ekonometrik usullar kabi yondashuvlardan foydalanish talab etiladi.

Transport infratuzilmasidagi ijobiy o‘zgarishlar mintaqalararo nomutanosiblikni kamaytirishga xizmat qiladi, biroq yuqori sifatli transport infratuzilmasi, xususan avtomagistrallardan foydalanish imkoniyati mintaqa ichidagi nomutanosiblikni kuchaytirishi mumkin. Bu esa transport infratuzilmasini shakllantirishda ichki hududiy joylashuvlarga alohida e‘tibor qaratish zarurligini asoslaydi.

Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, transport infratuzilmasidagi o‘zgarishlarning umumiy rivojlanishga ta‘sirini empirik jihatdan baholash murakkab jarayon hisoblanadi.

Chunki transport infratuzilmasi muayyan rivojlanish darajasiga yetgan mamlakatlarda bu yo‘nalishdagi o‘zgarishlar ko‘pincha faqat chekli daromadning o‘zgarishi sifatida baholanadi.

Biroq, mazkur yo‘nalishda amalga oshirilgan tadqiqotlarning umumiy xulosalariga ko‘ra, transport tizimidagi ijobiy o‘zgarishlar mintaqaviy rivojlanishga kuchli ta‘sir ko‘rsatishi ilmiy asoslangan².

TAHLIL VA NATIJALAR

Transport tizimining mohiyatini aniqlash hamda uning iqtisodiy jarayonlardagi roli va ta‘sirini baholash uchun unga bo‘lgan yondashuvlar tadqiq qilindi. Ya‘ni, transport tizimining nazariy asoslariga e‘tibor qaratilgan holda uning asosiy ta‘riflari ko‘rib chiqildi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, transport tizimi ma‘lum bir hududda transportga bo‘lgan talabni qondirish va transport xizmatlarini taklif etuvchi elementlarning kombinatsiyasi hamda ularning o‘zaro ta‘siri sifatida qaraladi³. Muallif ushbu ta‘rifning turli vaziyatlarda qo‘llash uchun umumiy moslashuvchan xususiyatga egaligini ta‘kidlaydi. Ya‘ni, transport tizimining o‘ziga xos tuzilishi mavjud muammo bilan belgilanadi va u ushbu muammoni bartaraf etish uchun xizmat qiladi.

Aslida, transport tizimi nafaqat turistlarning xizmatga bo‘lgan talabini, balki murakkab va ko‘p tarmoqli xizmatlarni o‘z ichiga olgan keng qamrovli majmua

¹ Agénor, P.R. 2013. Public capital, growth and welfare. Princeton: Princeton University Press.

² Fürst, F., Schürmann, C., Spiekermann, K. and Wegener, M. (2000), The SASI model: demonstration examples, SASI Deliverable D15. Final Report, Berichte aus dem Institut für Raumplanung 51, Institut für Raumplanung, Universität Dortmund.

³ Cascetta, E. (2001). Transportation Systems. In: Transportation Systems Engineering Theory and Methods. Applied Optimization, vol 49. Springer, Boston, MA. https://doi.org/10.1007/978-1-4757-6873-2_1

sifatida qaraladi. U faqatgina yo‘lovchi tashish tizimi emas, balki iqtisodiyotdagi xomashyo va tovarlarni tashishga xizmat qiluvchi murakkab tizim hisoblanadi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, transport tizimi ma‘lum bir hududda iqtisodiy jarayonlarni normal tashkil qilish va aholi harakatchanligini ta‘minlashga xizmat qiluvchi tizim sifatida qaraladi. Bunda transport tizimiga iqtisodiyotdagi xomashyo, oraliq mahsulotlar, tayyor tovar va xizmatlarning harakati, iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi ishchi kuchining mobilizatsiyasi hamda aholi harakatlanishining boshqa maqsadlarini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan xizmatlar majmuasi sifatida qarash mumkin.

Transport tizimi bo‘yicha xorijiy universitetlarning iqtisodchi olimlari tomonidan shakllantirilgan ta‘riflarga ko‘ra, transport tizimi insonlar va mahsulotlarni harakatga keltiruvchi vosita sifatida qaraladi va uni uchta guruhga ajratish taklif etiladi¹.

a) Narsa, odam yoki mahsulotlarni tashishga xizmat qiladigan vosita – ya‘ni, harakatlantiruvchi kuch (motor)ga ega bo‘lgan har qanday konteyner, arava, avtomobil va boshqa turdagi vositalarni o‘z ichiga oluvchi jamlanma.

b) Transport vositalarining harakatlanishini ta‘minlovchi yo‘llar va yo‘laklar – shuningdek, yo‘llardagi harakat yo‘nalishlarini ko‘rsatuvchi belgi va elektron vositalardan iborat. Bularning birlashishi natijasida vujudga keluvchi bog‘lanishlar ketma-ketligi marshrut deb yuritiladi. Bundan tashqari, transport trafigida bir vositadan boshqasiga o‘tkaziladigan tugunlar mavjud bo‘lib, ular terminallar sifatida ta‘riflanadi.

c) Transport harakatining operatsion rejasi – bu harakat va transport vositalarini yo‘l bo‘ylab harakatlantirish tartib-qoidolari, jumladan jadvallar, grafiklar, ekipaj topshiriqlari va boshqaruv tizimlari jamlanmasi hisoblanadi.

Keltirib o‘tilgan tizimlarning barchasi hududiy ajralish tamoyiliga ko‘ra (shahar, viloyat, yirik transport hablari, terminallar) o‘zaro ta‘sirga ega bo‘lgan qator transport turlariga bo‘linadi. Ya‘ni, vertikal va gorizontaal ravishda o‘zaro hamkorlikda ishlaydigan murakkab tizimlarning umumiy iyerarxik munosabatlari yig‘indisini tashkil etadi.


Tadqiqotlar jarayonida aniqlanishicha, transport tizimi majmualarining hududiy tasniflash jarayoni murakkab hisoblanadi. Bu esa ularning vertikal va gorizontaal iyerarxiyasini sintezini asoslash zaruratini keltirib chiqaradi. Yuk tashish yoki yo‘lovchi tashish kabi transport xizmatlarini ko‘rsatishda yuqorida ajratilgan majmualardan alternativ sifatida foydalanish mumkin, chunki ulardan foydalanishdagi vaqt hamda xarajatlar turlicha bo‘lishi kuzatiladi.

Bundan tashqari, har bir transport tizimi imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, tashiladigan yuk va yo‘lovchi uchun talablar shakllantirilishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan faoliyat tizimlari tarkibiy qismlari o‘zaro ta‘sirga ega bo‘lib, ularni quyidagicha tavsiflash mumkin: Uy xo‘jaliklarining joylashuvi va tarkibi bandlik imkoniyatlariga bevosita ta‘sir qiladi. Iqtisodiy faoliyatning ayrim turlari (chakana savdo, ijtimoiy xizmatlar, ta‘lim va boshqalar) bevosita aholi va uy xo‘jaliklari joylashuvi bilan bog‘liq hisoblanadi. Ushbu omillarning joylashuvining

¹ Transportation Engineering and planning – Vol. I — Transportation Systems — David Boyce

o‘zaro bog‘liqligi va masofasi transport xizmatlariga bo‘lgan talabga bevosita ta’sir ko‘rsatadi (1-rasm).



1-rasm. Transport va faoliyat tizimlari o‘rtasidagi munosabatlar¹

Shuningdek, taraqqiyotni hozirgi bosqichida transport tizimini shakllantirish bir qator talablarga javob berishi lozim. Ya’ni, yo‘lovchi yoki yuk tashishda xavfsizlik talablarini barajarilishi, ekologiyaga salbiy ta’sirlarini kamaytirish, ya’ni ekologik toza transport vositalaridan foydalanish hamda ularni belgilangan me’yorlar darajasida tashkil qilinishi lozim². Transport tizimi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning negizini

¹ Cascetta, E. (2001). Transportation Systems. In: Transportation Systems Engineering Theory and Methods. Applied Optimization, vol 49. Springer, Boston, MA. https://doi.org/10.1007/978-1-4757-6873-2_1


² UNESCAP. Gender and Transport; Report Congestion Combatting No. 76, No.82; Economic and Social Commission for Asia and the Pacific Transport and Communications Bulletin for Asia and the Pacific: Bangkok, Thailand, 2013

tashkil qiladi, chunki transport tizimi jamiyat a'zolari va iqtisodiy jarayonda qatnashuvchi subyektlarga mavjud imkoniyatlardan foydalanish, ularni harakatga keltirish uchun xizmat qiladi¹.

Mintaqada ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlanishi mavjud xalqaro standartlarga mos bo'lgan transport tizimini tashkil qilish uchun asos hisoblanadi. Bunda, mavjud transport infratuzilmasini takomillashtirish va ularni odamlarning mavjud ehtiyojlariga moslashtirish tushuniladi².

Aqlli transport tizimiga turli yondashuvlar mavjud bo'lib, buning natijasida olimlar tomonidan mazkur tushunchani ta'riflashda o'ziga xosliklar kuzatiladi. Shu sababdan aqlli transport tizimiga berilgan ta'riflarni qarab chiqildi (1-jadval).

Aqlli transport tizimiga berilgan ta'riflarni o'rganish va qiyosiy tahlilini amalga oshirish mazkur tizimni tashkil qilishdan ko'zlanadigan asosiy maqsadlarni aniqlash imkoniyatini yaratib beradi (2-rasm).



2-rasm. Aqlli transport tizimini tashkil qilishning asosiy maqsadlari va yutuqlari³

¹ Richardson, B.C. Sustainable transport: Analysis frameworks. J. Transp. Geogr. 2005, 13, 29–39. [CrossRef]

² Pucher, J.; Buehler, R. Cycling towards a more sustainable transport future. Transp. Rev. 2017, 37, 689–694.

³ Манба муаллиф ишланмаси

Transport tizimining samarali faoliyatini tashkil qilish va mavjud muammolarni hal etishda aqlli texnologiyalardan foydalanish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etishi tadqiqotlarimiz natijasida o‘z tasdig‘ini topdi.

Chunki aqlli transport tizimini tashkil qilishning asosiy maqsadlari va yutuqlari, mintaqada transport tizimini ushbu texnologiyalarsiz tashkil etish imkonsiz ekanligini asoslaydi. Ya’ni, aqlli axborot tizimi transport harakatini boshqarish jarayonidagi asosiy muammolarni – ish rejimi va mintaqalardagi o‘ziga xosliklarga qaramasdan ularning ideal yechimini aniqlash vositasi sifatida qaraladi.

Shuningdek, transport tizimi hamda iqtisodiyotning istiqboldagi barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun muayyan dastak vazifasini bajaradi.

Keyingi davrda transport harakatidagi tig‘izlikning oshishi, yo‘lovchi va yuk tashishga bo‘lgan talabning keskin sur‘atlarda o‘sishi transport tizimi bilan bog‘liq muammolarning kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda.

Bundan tashqari, aqlli texnologiyalardan foydalanish jarayonida katta hajmdagi ma’lumotlarning yig‘ilishi kuzatilmoqda. Ushbu ma’lumotlarga asoslangan holda tahlillarni amalga oshirish va xulosalar chiqarish – ular asosida qaror qabul qilish jarayonida samarali usullardan foydalanishni talab qiladi.

Shu nuqtai nazardan, transport tizimining samarali faoliyatini tashkil qilish, optimal variantlarni ishlab chiqishda axborot texnologiyalaridan foydalangan holda statistik va ekonometrik usullarni samarali qo‘llash, modellashtirishni amalga oshirish ko‘plab tadqiqotlar uchun dolzarb mavzu sifatida qaralmoqda.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslangan holda, mazkur tadqiqot ishida mintaqada transport tizimini ekonometrik usullardan foydalangan holda ishlab chiqilgan modellar asosida samaradorligini oshirish masalasi tahlil qilingan.

Shu bilan birga, tadqiqot ishining keyingi paragrafida aynan transport tizimini ekonometrik modellashtirishning uslubiy asoslari ko‘rib chiqilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqotlarimiz natijalari shuni ko‘rsatdiki, transport va faoliyat tizimlari o‘rtasidagi munosabatlarni takomillashtirish, transport tizimining samarali faoliyatini tashkil qilish hamda mavjud muammolarni hal etishda aqlli texnologiyalardan foydalanish bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etadi.

Aqlli transport tizimi nafaqat transport harakatini boshqarish jarayonidagi asosiy muammolarni hal qilish, balki mintaqaning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash uchun ham katta ahamiyatga ega. Ushbu tizimning joriy etilishi: Transport harakati tig‘izligini kamaytirish, yo‘lovchi va yuk tashishga bo‘lgan talabni samarali boshqarish imkoniyatini yaratish, aqlli axborot tizimlari yordamida katta hajmdagi ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish orqali aniq va optimal qarorlar qabul qilishni ta’minlash imkonini beradi.

Fikrimizcha, bugungi kunda transport harakatini boshqarish jarayonlarini yanada optimallashtirish maqsadida mintaqalarda aqlli axborot tizimlarini kengaytirish va modernizatsiya qilish orqali transport tizimining samaradorligini oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Koźlak, Aleksandra. (2017). *The Role of the Transport System in Stimulating Economic and Social Development*. *Zeszyty Naukowe Uniwersytetu Gdańskiego. Ekonomia Transportu i Logistyka*, 72, 19–33. DOI: 10.5604/01.3001.0010.6873.
2. Aghion, P., & Howitt, P. (1998). *Endogenous Growth Theory*. The MIT Press, Cambridge. Barro, R.J., & Sala-i-Martin, X. (1995). *Economic Growth*. The MIT Press, Cambridge.
3. Agenor, P.-R., & Moreno-Dodson, B. (2006). *Public Infrastructure and Growth: New Channels and Policy Implications*. *World Bank Policy Research Working Paper*, 4064. Agénor, P.-R. (2004). *The Economics of Adjustment and Growth* (2nd edition). Harvard University Press, Boston.
4. Agénor, P.R. (2013). *Public Capital, Growth and Welfare*. Princeton: Princeton University Press.
5. Fürst, F., Schürmann, C., Spiekermann, K., & Wegener, M. (2000). *The SASI Model: Demonstration Examples*. SASI Deliverable D15. Final Report, *Berichte aus dem Institut für Raumplanung*, 51, Institut für Raumplanung, Universität Dortmund.
6. Cascetta, E. (2001). *Transportation Systems*. In: *Transportation Systems Engineering: Theory and Methods. Applied Optimization*, vol. 49. Springer, Boston, MA. DOI: https://doi.org/10.1007/978-1-4757-6873-2_1.
7. Boyce, D. *Transportation Engineering and Planning – Vol. I — Transportation Systems*.
8. UNESCAP. *Gender and Transport; Report Congestion Combatting No. 76, No. 82; Economic and Social Commission for Asia and the Pacific. Transport and Communications Bulletin for Asia and the Pacific: Bangkok, Thailand, 2013*.
9. Richardson, B.C. (2005). *Sustainable Transport: Analysis Frameworks*. *Journal of Transport Geography*, 13, 29–39. DOI: [CrossRef]
10. Pucher, J., & Buehler, R. (2017). *Cycling Towards a More Sustainable Transport Future*. *Transport Reviews*, 37, 689–694.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, fevral, 2-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournlbot](https://t.me/marketinjournlbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**